

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

---

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**GULBAYEVA FERUZA ISLAMOVNA**

**KIMYO SANOATI KORXONALARIDA TEJAMKOR ISHLAB  
CHIQARISHNI BOSHQARISH KONSEPSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Economical Sciences**

**Gulbayeva Feruza Islamovna**

Kimyo sanoati korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni boshqarish konsepsiyasini takomillashtirish .....	3
--	---

**Гулбаева Феруза Исламовна**

Совершенствование концепции управления бережливым производством на предприятиях химической промышленности .....	29
--	----

**Gulbaeva Feruza Islamovna**

Improving the concept of lean production management in chemical industry enterprises .....	57
---	----

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ List of published works .....	63
--	----

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**GULBAYEVA FERUZA ISLAMOVNA**

**KIMYO SANOATI KORXONALARIDA TEJAMKOR ISHLAB  
CHIQARISHNI BOSHQARISH KONSEPSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt4229 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent kimyo-tehnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kasimova Fotima Tulkunovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ochilov Akram Odilovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12 2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 11 "11" soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-28-66, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~raqami~~ bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-28-66, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 28 10 kuni tarqatildi  
(2025-yil 27 10 dagi 54 raqamli reyestr bayonnomasi).



**G.Q. Abduraxmanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**O.Dj. Djurabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**Sh.A. Allayarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahonda so‘nggi yillarda kimyo sanoatining global daromadi sezilarli darajada o‘sdi. 2023-yilda kimyo-farmatsevtika sektori jahonda tahminan 7,1 trillion yevro daromad keltirdi. Bu 2022-yilda kimyo sanoatining farmatsevtikadan tashqari umumiy daromadi 5,72 trillion AQSH dollariga yetganini ko‘rsatuvchi hisobotlarga mos keladi, bu so‘nggi 15 yildagi eng yuqori ko‘rsatkichdir. Osiyo jahon bozorida hukmronlik qilsa-da, boshqa mintaqalar ham sanoat daromadiga sezilarli hissa qo‘shadi. 2023-yilda Lotin Amerikasi kimyo sanoati tahminan 237,47 milliard evro ishlab chiqardi, Braziliya mintaqaviy bozorning uchdan bir qismidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi. Yevropada Germaniya kimyo sanoatida 225,5 milliard yevro daromad bilan yetakchilik qilgan bo‘lsa, Fransiya 108,5 milliard yevro daromad bilan ikkinchi o‘rinda turadi. Shunga qaramay, Xitoy 2022-yilda qariyb 2,4 trillion yevro ishlab chiqaradigan eng yirik yagona davlat bozori bo‘lib qolmoqda, bu global daromadning qariyb 44 foizini tashkil qiladi<sup>1</sup>.

Jahonda kimyo sanoati 2024-yilda ishlab chiqarish hajmini 2023-yil darajasidan oshib, o‘rtacha muvaffaqiyatga erishdi va ishlab chiqarish darajasi o‘sishda davom etishi tahmin qilinmoqda, chunki zahiralarni yo‘qotish davri qisqarib, ko‘pchilik mahsulotlar bo‘yicha talab ortib boradi. Biroq, daromad o‘sishini yanada qo‘llab-quvvatlash uchun kimyo kompaniyalari xarajatlarni qisqartirish rejalarini e’lon qilindi va marjani oshirishni boshladilar, shu bilan birga innovatsiyalarga investitsiyalar davom ettirildi<sup>2</sup>.

O‘zbekistonda ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta qurollantirishga yuqori e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni bilan “Iqtisodiyot tarmoqlarining “drayver” yo‘nalishlarida 850 turdagи innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish”, “O‘zbekistonning Global innovatsion indeksda Top-50 talik mamlakatlar ro‘yxatiga kirishini ta’minlash” hamda “ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish” ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi, xususan, sanoat korxonalarida innovatsion strategiyalarni samarali qo‘llash, yuqori ilmiy sig‘imli ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, innovatsion faollikni oshirishni talab qiladi va ushbu masalalarni ijobjiy hal qilish maqsadida sanoat korxonalarida innovatsiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanish lozim. Kimyo sanoati korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyanini tadbiq etish asosida korxona samaradorligini oshirish orqali nafaqat milliy va jahon bozorlarida raqobatbardoshlikni ta’minlash, balki iqtisodiyotni innovatsiyalar asosida tashkil etish va mamlakatning yuqori reyting

<sup>1</sup><https://www.statista.com/statistics/263136/global-market-share-in-the-chemical-industry-by-region/#:~:text=The%20global%20revenue%20of%20the,trillion%20euros%20in%20global%20revenue>.

<sup>2</sup><https://www.statista.com/statistics/263136/global-market-share-in-the-chemical-industry-by-region/#:~:text=The%20global%20revenue%20of%20the,trillion%20euros%20in%20global%20revenue>.

ko'rsatkichlariga erishishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Yuqoridagi vazifalarning ijrosi O'zbekistonda kimyo sanoati korxonalarida zamonaviy boshqaruv vositalaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2017 yil 29 noyabrdagi PF-5264-sonli "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida", 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.05.2024 yildagi 319-sonli "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy, axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darjasи.** Kimyo sanoati korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish, ularning samaradorligini oshirish borasidagi tadqiqotlar, uning nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar Robert S.Kaplan, D P.Norton, J.R.Ehrenfeld, J.Juran, M.Porter, P.Draker, R.Solou, S.Bryu, va boshqalarning ilmiy asarlarida atroflicha tahlil qilingan.<sup>3</sup>

MDH mamlakatlarining ko'plab iqtisodchi olimlari, jumladan, I.Ansoff, V.G.Antonov, V.V.Krilov, A.Yu.Kuzmichev, V.V.Ivanov, I.V.Milkina, Ye.Popova, A.V.Tebekin, Y.A.Shumpeter, R.F.Fatxutdinov va boshqalarning ilmiy ishlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning korxona miqyosida o'ziga xos jihatlarini alohida tadqiq etishgan va ishlab chiqarishni rivojlanishida asosiy omil sifatida ilmiy yondashganlar<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996. – 414 p.; Эренфельд Дж. Р. Sustainability by Design: A Subversive Strategy for Transforming Our Consumer Culture. – Нью-Хейвен: Yale University Press, 2008. – 256 с.; Juran J.M. Juran on Quality by Design: The New Steps for Planning Quality into Goods and Services. – New York: Free Press, 1992. – 392 p.; Porter M.E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – New York: Free Press, 1980. – 396 p.; Drucker P.F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. – New York: Harper & Row, 1974. – 846 p.

<sup>4</sup> Айсофф И. Новая корпоративная стратегия. / Под ред. Ю.Н.Каптуренского. – СПб.: «Питер», 1999. – 416 с.; Антонов В.Г., Крылов В.В., Кузьмичев А.Ю. и др. Корпоративное управление. Учебное пособие. / Под ред. В.Г.Антонова. – М.: ИД "ФОРУМ": ИНФРА-М, 2010. – 288 с.; Иванов В.В. Национальные инновационные системы: теория и практика формирования. Монография. / В.В.Иванов. – М.: СканРус, 2014. – 285 с.; Инновационный тип развития экономики. Учебник. / [Архангельский В.В. и др.]; под общ. ред. А.Н.Фоломьева, Рос. акад. гос. службы при Президенте Рос. Федерации. Изд. 2-е, доп. И перераб. – М.: Изд-во РАГС, 2010; Милькина И.В. Теоретические основы формирования стратегии инновационного развития территорий. / И.В.Милькина. // Инновации, 2017. – 87 с.; Попова Е. Проблемные вопросы развития национальной инновационной системы в РФ Текст. / Е.Попова. // Общество и экономика, 2007. – 138 с.;

Shuningdek, O‘zbekistonda kimyo sanoati sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy masalalari, uning samaradorligini oshirishning turli jihatlari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari Sh.A.Atamuradov, N.M.Maxmudov, D.N.Akabirova, A.M.Qodirov, A.T.Axmedova, N.R.Alimova, A.R.Yoqubjonov, Z.T.Gaibnazarova, Sh.E.Sindarov, U.A.Madrahimov, O.X.Xamirayev, Z.A.Xakimov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yetarli ochib berilgan<sup>5</sup>.

Yuqoridagi mualliflarning ilmiy ishlarida sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash amaliyotini o‘rganishga yetarli darajada e’tibor berilmagan. Shu sababli, iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan hisoblangan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash amaliyotini chuqurroq o‘rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlar muhim ilmiy va uslubiy manba bo‘lsada, kimyo sanoati korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini tatbiq etishni boshqarish amaliyotini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi boshqaruv texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga yuqori ahamiyat qaratilishi talab etilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston olimlari tomonidan innovatsion iqtisodiyot sharoitida kimyo sanoati korxonalari faoliyatiga operatsion menejment, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tizimli yondashuv asosida yaxlit mustaqil tadqiqot ishi obyekti sifatida o‘rganilmagan. Ushbu holatlarini hisobga olib, mazkur tadqiqot ishi mavzusi tanlangan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilayotgan ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kimyo sanoati korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini tadbiq etishni boshqarish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

sanoatda samaradorlikka yo‘naltirilgan zamonaviy ishlab chiqarish konsepsiylarini o‘rganish;

kimyo sanoati korxonalarida “tejamkor ishlab chiqarish”ni boshqarish prinsiplari va funksiyalarini nazariy-uslubiy jihatlarini tadqiq qilish;

tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasidan foydalanishni boshqarish samaradorligini baholash uslubi;

kimyo sanoat korxonalari faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish;

Тебекин А.В. Инновационное развитие экономики. / А.В.Тебекин. – М.: Моск. гос. акад. делового администрирования, 2015;Фатхутдинов, Р.Ф. Инновационный менеджмент. / Р.Ф.Фатхутдинов. – М., 2016.

<sup>5</sup> Атамурадов Ш.А. Саноатда инновацион фаолиятни ривожлантиришда венчур инвестицияларини жалб килиш масалалари. // Архив научных исследований. 2022. Т. 2; Махмудов Н.М., Акабирова Д.Н. Стратегия инновационного развития промышленности Республики Узбекистан в период модернизации экономики.

O‘zbekiston iqtisodiyotida kimyo sanoatining o‘rnini olib berish;

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi korxonalarda “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasidan foydalanish holatini tahlil qilish;

O‘zkimyosanoat korxonalarini ishlab chiqarish jarayonida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasini tadbiq etish samaradorligini baholash;

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tizimida faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarining tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini tadbiq etishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

kimyo sanoati korxonalarini boshqaruvida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasini tadbiq etish vositalarini taklig etish;

kimyo sanoati korxonalarida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasidan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va prognozni amalga oshirish.

**Tadqiqotning obyekti bo‘lib**, “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi kimyo sanoati korxonalarining boshqaruv faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi kimyo sanoati korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini tadbiq etishni boshqarishdagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlaridan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli va iqtisodiy tahlil, guruhlash, korrelyatsion va regression tahlil, SEM-Path modeli, ekspert baholash, qiyosiy, tarkibiy va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

uslubiy yondoshuvga ko‘ra “korxonalarda tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini tadbiq etishni boshqarish” tushunchasi resurslarni samarali boshqarish, yo‘qotishlarni minimallashtirish va uzlusiz takomillashtirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish jarayoni bo‘lib, u zamonaviy menejmentning Lean Management, Six Sigma, Kaizen va Industry 4.0 tamoyillariga asosida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan murakkab boshqaruv mexanizmi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

kimyo sanoat korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish vositalari 5S, SMED, JITni tadbiq etish asosida samaradorlikni oshirish taklifi asoslangan;

kimyo sanoat korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasidan foydalanishni boshqarish samaradorligini baholash shkalasi  $[0-0,5]$  - juda past samaradorlik,  $[0,5-1,0]$  - past samaradorlik,  $[1,0-1,5]$  - o‘rtacha samaradorlik,  $[1,5-2,0]$  - yuqori samaradorlik,  $[>2,0]$  - juda yuqori samaradorlik mezonlari asosida takomillashtirilgan;

O‘zbekistonda kimyo sanoati korxonalarining 2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ssenariylari ekonometrik modellashtirish asosida ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari.**

kimyo sanoat korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish vositalarini joriy etish samaradorligi, avvalo, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini tizimli qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lib, 5S ish joylarini tartibga solish orqali mehnat unumdarligini oshiradi va vaqt yo‘qotishlarini kamaytirsa, SMED uskuna sozlash vaqtlarini qisqartirib

jarayonlarning moslashuvchanligini ta'minlaydi, JIT esa zaxiralarni optimallashtirib ishlab chiqarish oqimini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi, natijada korxonalarining resurslardan foydalanish darjasini oshib, ishlab chiqarish xarajatlari sezilarli kamayishi ilmiy asoslandi;

kimyo sanoatida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasidan foydalanishni boshqarish samaradorligini baholash uslubi shkala mezonlari asosida takomillashtirilgan;

O'zbekistonda kimyo sanoati korxonalarining 2030-yillargacha rivojlanish prognoz ssenariylari ekonometrik modellashtirish orqali ishlab chiqilgan bo'lib, ular investitsiya oqimlari, eksport salohiyati va resurs tejamkor texnologiyalarga o'tish dinamikalarini hisobga olishi natijasida tarmoqni strategik rejorashtirishida qo'llash imkonini bergen.

Lean productionni joriy etish va/yoki uzlusiz rivojlantirishning tashkiliytuzilmaviy sxemasi ishlab chiqilgan bo'lib, korxona ichida tejamkor ishlab chiqarish falsafasining bosqichma-bosqich shakllanishi, funksional bo'linmalar o'rtasidagi integratsiya hamda doimiy takomillashtirish jarayonlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan strategik konsepsiya taklif etilgan;

kimyo sanoat korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasidan foydalanishni boshqarish samaradorligini baholash shkalasi [0–0,5) - juda past samaradorlik, [0,5–1,0) - past samaradorlik, [1,0–1,5) - o'rtacha samaradorlik, [1,5–2,0) - yuqori samaradorlik, [>2,0] - juda yuqori samaradorlik mezonlari asosida takomillashtirilgan;

O'zbekistonda kimyo sanoati korxonalarining 2030-yillargacha rivojlanish prognoz ssenariylari ekonometrik modellashtirish orqali ishlab chiqilgan bo'lib, ular investitsiya oqimlari, eksport salohiyati va resurs tejamkor texnologiyalarga o'tish dinamikalarini hisobga oladi hamda mazkur natijalar tarmoqni strategik rejorashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Ilmiy ishning amaliy ahamiyati** shundan iboratki, unda keltirilgan ilmiy xulosalar, nazariy va amaliy tavsiyalardan "O'zkimyosanoat" AJ korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, operatsion menejmentni takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya tadqiqoti ishida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, jahon tendensiyalarini tizimlashtirish va umumlashtirish, "O'zkimyosanoat" AJning statistik hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari tahlili, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va boshqa rasmiy nashr etilgan materiallar, shuningdek, "O'zkimyosanoat" AJ amaliyotiga joriy etish bo'yicha xulosa, taklif va tavsiyalar bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan nazariy qoidalar va xulosalar, tahliliy ma'lumotlarni "Ishlab chiqarish menejmenti", "Innovatsion menejment", "Sanoat

iqtisodiyoti”, “Strategik rejalashtirish” kabi fanlarni o‘qitish jarayonlarini uslubiy ta’minlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kimyo sanoati korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini tadbiq etishni boshqarish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalardan nafaqat kimyo sanoatida, balki sanoatning boshqa tarmoqlarida o‘rtta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dissertatsiyaning natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida quyidagi natijalarga erishilgan:

uslubiy yondoshuvga ko‘ra “korxonalarda tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini tadbiq etishni boshqarish” tushunchasi resurslarni samarali boshqarish, yo‘qotishlarni minimallashtirish va uzlucksiz takomillashtirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish jarayoni bo‘lib, u zamonaviy menejmentning Lean Management, Six Sigma, Kaizen va Industry 4.0 tamoyillariga asosida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan murakkab boshqaruv mexanizmi nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida talabalarda Lean Management, Six Sigma, Kaizen va Industry 4.0 tamoyillariga asosida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan murakkab boshqaruv mexanizmi nuqtayi nazaridan korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini tadbiq etishni boshqarish bo‘yicha nazariy bilimlarni takomillashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatilgan;

kimyo sanoat korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish vositalari 5S, SMED, JITni tadbiqu etish asosida samaradorlikni oshirish taklifi bo‘yicha takliflar “O‘zkimyosanoat” AJ faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2025-yil 5-iyundagi 22-05-06-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida kimyo korxonalariga innovatsiyalarni joriy etish, ularning samaradorligini va mavjud jarayonlarga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlash amalga oshirilgan. Natijada “Navoiyazot” AJning innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘lami 2023-yilda 2022-yilga nisbatan jami mahsulotlarga nisbatan 3,6 foizga, “Maxam-Chirchiq” AJda bu ko‘rsatkich 5,8 foizga, “Farg‘onaazot” AJda esa 11,4 foizga oshgan;

kimyo korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasidan foydalanishni boshqarish samaradorligini baholash shkalasi [0–0,5) - juda past samaradorlik, [0,5–1,0) - past samaradorlik, [1,0–1,5) - o‘rtacha samaradorlik, [1,5–2,0) - yuqori samaradorlik, [>2,0] - juda yuqori samaradorlik mezonlari asosida takomillashtirish “O‘zkimyosanoat” AJ faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning

2025-yil 5-iyundagi 22-05-06-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyatga joriy etish natijasida kimyo tarmoq korxonalarining innovatsion faolligini oshirish strategiyalari ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda kimyo sanoati korxonalarining 2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari "O'zkimyosanoat" AJ faoliyatida foydalanilgan ("O'zkimyosanoat" AJning 2025-yil 5-iyundagi 22-05-06-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyatga joriy etish natijasida "O'zkimyosanoat" AJ tarkibidagi korxonalarning innovatsion mahsulotlar eksportini 2030-yilgacha bo'lgan muddatlarda 18 foizga oshirish imkonini aniqlanib, kimyo korxonalari ishlab chiqarish va eksport hajmining istiqboldagi ko'rsatkichlarini yanada aniqlashtirish va muvofiqlashtirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 148 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbliji va zarurati asoslangan, muammoning o'r ganilganlik darajasi hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natjalarning ilmiy va amaliy ahamiyati olib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyatga joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kimyo sanoat korxonalarida "tejamkor ishlab chiqarish" konsepsiyasini tadbiq etishni boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida kimyo sanoat korxonalarida "tejamkor ishlab chiqarish" konsepsiyasini tadbiq etishni boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari o'r ganilgan. Kimyo sanoati korxonalarida "tejamkor ishlab chiqarish" ni boshqarish prinsiplari va funksiyalari aniqlangan va ularni tizimlashtirish amalga oshirilgan. Tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasidan foydalanishni boshqarish samaradorligini baholash uslubini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ishlab chiqarishda "tejamkorlik" tushunchasini birinchi bo'lib Jon Krafchik (John Krafcik) joriy etgan. Uning fikricha, "tejamkorlik" (Lean) deganda, yangi turdag'i ishlab chiqarishda ortiqcha xarajatlar va noto'g'ri jarayonlar umuman mavjud bo'lmasligi nazarda tutilgan. "Lean" atamasi,

J. Vumek va Dn. Jonsning ta’rifiga ko‘ra, mehnat va samarali ishlashga qodir bo‘lishni anglatadi. Tejamkor ishlab chiqarish bo‘yicha adabiyotlarda mazkur tushuncha o‘zbek tilida “to‘g‘ri”, “tekis” yoki “tejamkor” ishlab chiqarish degan variantlar bilan ta’riflanadi. Tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasining nazariy-uslubiy asoslari asosan XX asrning ikkinchi yarmida rivojlanan boshladi. Xorijiy olimlar Dennis P. Xobbs, Stefan Ruffa, Djordj Alukal, Lauri Koskela va boshqalar, tejamkor ishlab chiqarishni korxonani boshqarish falsafasi sifatida, u ishlab chiqarish prinsiplariga asoslangan deb ta’riflaydilar.

Lean qiymat yakuniy iste’molchi nuqtayi nazaridan aniqlanadi: qiymat qo‘shmaydigan jarayonlar va harakatlar yo‘qotish hisoblanadi. Bundan tashqari, foyda keltirmaydigan yoki ortiqcha xarajatlarni keltirib chiqaradigan bosqichlarni aniqlash va bartaraf etish uchun qiymat yaratish oqimi tahlil qilinadi. Yo‘qotishlar bartaraf etilgandan so‘ng, to‘xtashlar va kechikishlarni minimallashtiradigan ravon, uzlusiz oqim tashkil etiladi. Ishlab chiqarish jarayoni shunday sozlanadiki, bunda “cho‘zish” tamoyiliga amal qilinadi, ya’ni mahsulot “yo‘lakay” ishlab chiqarilmaydi, balki real talabga qarab mo‘ljal olinadi. Lean Productionning yakuniy tamoyili jarayonlarni doimiy ravishda takomillashtirish orqali mukammallikka intilishdir, bu yapon madaniyatida kaydzen deb nomlanadi.

Lean production Muda deb nomlanuvchi yettita asosiy chiqindilar turini aniqlaydi: ortiqcha ishlab chiqarish, kutish, ortiqcha inventar, ortiqcha harakat, ortiqcha operatsiyalar, nuqsonlar va ortiqcha ishlov berish. Ushbu yo‘qotishlarni bartaraf etish mehnat unumdorligini oshirish, sifatni yaxshilash va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Lean bir qator vositalar va usullardan foydalanadi. Ular orasida doimiy kichik takomillashtirishni o‘z ichiga olgan Kayzen tizimi mavjud; Kanban, haqiqiy talab asosida ishlab chiqarish oqimini tartibga soluvchi vizual boshqaruv tizimi; 5S tizimi (Sarlash, tartibni saqlash, tozalash, standartlashtirish va takomillashtirish), bu ish joyida tartibni saqlashga qaratilgan; Poka-Yoke usuli, bu operatsiyani yagona mumkin bo‘lgan usulda to‘g‘ri bajarishga imkon beradigan oddiy echimlardan foydalangan holda xatolarni oldini oladi; va Value Stream Mapping, jarayon zanjirini tahlil qilish va optimallashtirish uchun foydalilaniladigan vositadir<sup>6</sup>.

Lean production dan foydalanishning ko‘plab afzalliklari bor. Ular orasida isrofgarchilikni kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, tannarxni kamaytirish, ishlab chiqarishning moslashuvchanligini oshirish va mijozlar ehtiyojini qondirishni yaxshilash kiradi. Biroq, Lean production amalga oshirish har doim ham muammosiz o‘tmaydi va qiyinchiliklar bilan birga bo‘lishi mumkin. Potensial muammolarga jarayonlarni haddan tashqari soddalashtirish xavfi, korporativ madaniyatni o‘zgartirish qiyinligi, xodimlarni ortiqcha yuklash va strategik rivojlanish hisobiga qisqa muddatli natijalarga e’tibor qaratish kiradi. Bundan tashqari, tejamkor ishlab chiqarishni haddan

<sup>6</sup> Голдратт, Э. Цель. Процесс непрерывного совершенствования. М.: ИД "Питер", 2014.

tashqari optimallashtirish tizimning beqarorlik va kutilmagan o‘zgarishlar sharoitida chidamlilagini pasaytirishi uchun tanqid qilindi. Shunga qaramay, Lean production nafaqat ishlab chiqarishda, balki logistika, sog‘liqni saqlash, IT va xizmatlar ko‘rsatish kabi sohalarda ham qo‘llanilishida davom etayotgan samarali metodologiya bo‘lib qolmoqda.

Dinamik o‘zgarishlar va yuqori raqobat sharoitida tejamkor ishlab chiqarish dolzarbligicha qolmoqda. Uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan amalga oshirishga kompleks yondashuvga va barcha xodimlarni o‘zgartirish jarayoniga jalb qilishga bog‘liq. Lean production to‘g‘ri qo‘llanilganda u unumdorlikni sezilarli darajada oshirishga va tannarxni kamaytirishga yordam beradi, bu esa uni turli sohalardagi korxonalar uchun qimmatli vositaga aylantiradi.

Tejamkor ishlab chiqarish nazariyasi va hozirgi holatini tadqiq qilish doirasida, Tejamkor ishlab chiqarishning e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan prinsiplari tanqidiy tahlil qilingan. Ushbu prinsiplarning tarkibini tahlil qilish natijasida uchta klassik guruh mavjudligi aniqlandi:


1. Ed. Deming bo‘yicha takomillashish prinsiplari – Edvard Deming ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish uchun doimiy tahlil va aniqlashtirishlarni muhim deb hisoblaydi. Bu prinsiplar jarayonlarning yuqori sifati va samaradorligini ta’minlashga qaratilgan.

2. J. Vumek va Dn. Jons bo‘yicha tejamkor ishlab chiqarish prinsiplari – Ushbu prinsiplar orqali ishlab chiqarishda ortiqcha xarajatlar va vaqt ni kamaytirish, ya’ni “qimmat” narsalarini bartaraf etish maqsad qilingan. Ular “tejamkorlik” tushunchasini ishlab chiqarish jarayoniga izchil joriy qilishni maqsad qiladilar.

3. J. Laykerdan biznes yuritish bo‘yicha Toyota prinsiplari – Toyota ishlab chiqarish tizimidagi prinsiplar samaradorlikni oshirish, ortiqcha xarajatlarni oldini olish va biznes jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan. Bu prinsiplar ishlab chiqarishning har bir bosqichida samaradorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Just-In-Time – Tejamkor ishlab chiqarishdagi eng muhim tamoyillardan biri bo‘lib, mahsulot yoki xizmatlarni aynan talab qilinayotgan miqdorda va zarur vaqtida ishlab chiqarishni nazarda tutadi. JIT tizimi ortiqcha zaxiralarni kamaytirish, keraksiz vaqt sarfini yo‘q qilish va ish jarayonini tekis oqimdek tashkil qilish orqali yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi.

Bu yondashuv mahsulotning har bir bosqichda so‘rovga mos ravishda yetishtirilishini ta’minlab, ortiqcha material zaxirasidan xoli bo‘lgan muvozanatli ish jarayonini shakllantiradi. Tejamkor ishlab chiqarishdagi yana bir muhim konsepsiya – Xeyjunka (Heijunka) bo‘lib, ish jarayonidagi yuklamalarni muvozanatlashtirish va barqarorlashtirishga qaratilgan. Mazkur tamoyil talabdagagi keskin o‘zgarishlarni yumshatish, ishlab chiqarish hajmini tekis taqsimlash va yuklamalarni moslashtirish orqali ish joyidagi muvozanatni ta’minlaydi. Xeyjunka asosida tashkil etilgan ish jarayonlari keskin yuklamalardan qochish va mahsulot yetkazib berish jarayonini barqarorlashtirish imkonini beradi.



### 1-rasm. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning zamonaviy konsepsiyalari<sup>7</sup>.

Ji Doka (Jidoka) tamoyili esa ishlab chiqarish jarayonida sifatga alohida urg‘u berishni nazarda tutadi. Ji Doka orqali ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni zudlik bilan bartaraf etish imkonini yaratiladi. Bu esa sifatli mahsulotni kafolatlashga, inson va mashina o‘rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishga va jarayondagi noqonuniy xatolarni erta bosqichda bartaraf qilishga olib keladi. Natijada, ishlab chiqarish jarayonidagi har qanday xato zudlik bilan aniqlanib, to‘g‘ri qarorlar qabul qilinadi.

Shu bilan birga, 5S (Seyri, Seyton, Seysou, Seyketsu va Shitsuke) deb nomlangan uy xo‘jaligi tamoyili ham Tejamkor ishlab chiqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. 5S ish joyini tartibga solish, tozalikni saqlash, keraksiz elementlarni chetlatish va ish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Bu tamoyil tartibli va yaxshi tashkillashtirilgan ish joyini ta’minlab, ish jarayonidagi turg‘unlik va keraksiz vaqt sarfini kamaytiradi. Tozalik va tartib orqali ish muhiti samaradorroq va qulayroq bo‘lib qoladi.

Bizning fikrimizcha, “Tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiysi o‘zining samaradorlikka asoslangan yondashuvi orqali zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari uchun eng ilg‘or va ishonchli model sifatida tan olinadi. Unga rioya qilish orqali ortiqcha resurs sarfi, vaqt yo‘qotishlar va keraksiz xarajatlarni kamaytirish hamda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Kimyo sanoatida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini joriy etish samaradorligini koeffitsiyentlar asosida baholash uchun unumdonorlik, sifat, xarajatlar, resurslar, atrof-muhitga ta’sir va xavfsizlik kabi ishlab chiqarishning asosiy parametrlarini hisobga oladigan shaklni taklif qilishimiz mumkin. Buning uchun ushbu parametrlarning har biri bo‘yicha yaxshilanish yoki yomonlashish darajasini aniqlaydigan koeffitsiyentlarni tuzamiz. Shuningdek, konsepsiya

<sup>7</sup> [www.researchgate.net/figure/conceptual-lean-production\\_fig1\\_322233373](http://www.researchgate.net/figure/conceptual-lean-production_fig1_322233373)

qanchalik muvaffaqiyatli joriy etilganligini tushunish uchun baholash shkalasini taklif qilingan.

Muallif tomonidan ushbu belgilar va koeffitsiyentlar kiritilgan:

$K_P$  - ishlab chiqarish hajmining asosiy holatga nisbatan yaxshilanishini tavsiflovchi unumdorlik koeffitsiyenti.

$K_Q$  - mahsulot sifatining yaxshilanishini (masalan, nuqsonlar sonining kamayishini) o'lchaydigan sifat koeffitsiyenti.

$K_C$  - ishlab chiqarish ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishini ko'rsatuvchi xarajatlar koeffitsiyenti.

$K_R$  - resurslardan foydalanish samaradorligini o'lchaydigan resurslardan foydalanish koeffitsiyenti (masalan, xomashyo, suv, energiya).

$K_E$  - ekologik vaziyatning yaxshilanishini aks ettiruvchi ekologik ta'sir koeffitsiyenti (masalan, CO<sub>2</sub> chiqindilarining kamayishi).

$K_S$  - ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va baxtsiz hodisalar bo'yicha yaxshilanishni o'lchaydigan xavfsizlik koeffitsiyenti.

$K_T$  - sikl yoki ishlab chiqarish jarayoni vaqtining qisqarishini aks ettiruvchi vaqt koeffitsiyenti (agar vaqt kamaygan bo'lsa, KT koeffitsiyenti 1 dan katta bo'ladi).

Lean production konsepsiyasini joriy etish samaradorligini kompleks baholash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$K_{LP} = \sqrt[6]{\frac{K_P \times K_Q \times K_C \times K_R \times K_E \times K_S}{K_T}}$$

Agar yaxshilanishlar yuz bergan bo'lsa, unumdorlik koeffitsiyenti, sifat koeffitsiyenti va xarajat koeffitsiyenti 1 dan yuqori bo'lishi kerak. Masalan, mahsuldarlik 10% ga oshgan bo'lsa, KLP koeffitsiyenti 1,1 ga teng bo'ladi.

Korxonada resurslaridan foydalanish, ekologik ta'sir va xavfsizlik koeffitsiyentlari, agar tejamkor ishlab chiqarishni joriy etish ushbu parametrlarning yaxshilanishiga olib kelgan bo'lsa, 1 dan kam bo'lishi kerak. Masalan, resurslardan foydalanish 15% ga kamaygan bo'lsa, KLP koeffitsiyenti 0,85 ga teng bo'ladi. Agar jarayonlarni bajarish vaqt qisqargan bo'lsa, vaqt koeffitsiyenti ham 1 dan katta bo'lishi kerak (masalan, agar vaqt 20% ga kamaygan bo'lsa, tegishli koeffitsiyent 0,8 ga teng bo'ladi) (1-jadval).

Olingan qiymatni baholash uchun quyidagi shkaladan foydalanish mumkin, ya'ni, 0 - 0,5: Juda past samaradorlik – konsepsiyanı joriy etish sezilarli yaxshilanishlarga olib kelmadi va to'g'ri amalga oshirilishi bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin.

0,5 - 1,0: Past samaradorlik – yaxshilanishlar mavjud, ammo ular ahamiyatsiz yoki yetarli emas.

1,0 - 1,5: O'rtacha samaradorlik – joriy etish ba'zi ijobiy natijalarni berdi, ammo yanada takomillashtirish zarur bo'lgan sohalar mavjud.

1,5-2,0: Yuqori samaradorlik – aksariyat parametrlar bo'yicha yaxshilanishlar sezilarli, ammo optimallashtirish uchun hali imkoniyatlar mavjud.

2.0 va undan yuqori: Juda yuqori samaradorlik – Lean joriy etilishi barcha jihatlarda sezilarli yaxshilanishlarga olib keldi, unumdorlik, sifat, atrof-muhit va xavfsizlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi.

### 1-jadval

#### Tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasidan foydalanishni boshqarish samaradorligini baholash shkalasi<sup>8</sup>.

Qiymat intervali	Berilgan baho	Mazmuni
0 - 0,5	Juda past samaradorlik	konsepsiyanı joriy etish sezilarli yaxshilanishlarga olib kelmadi va to‘g‘ri amalga oshirilishi bilan bog‘liq muammolar bo‘lishi mumkin
0,5 - 1,0	Past samaradorlik	yaxshilanishlar mavjud, ammo ular ahamiyatsiz yoki yetarli emas
1,0 - 1,5	O‘rtacha samaradorlik	joriy etish ba’zi ijobjiy natijalarni berdi, ammo yanada takomillashtirish zarur bo‘lgan sohalar mavjud
1,5-2,0	Yuqori samaradorlik	aksariyat parametrlar bo‘yicha yaxshilanishlar sezilarli, ammo optimallashtirish uchun hali imkoniyatlar mavjud
2.0 va undan yuqori	Juda yuqori samaradorlik	tejamkor ishlab chiqarish (lean production) joriy etilishi barcha jihatlarda sezilarli yaxshilanishlarga olib keldi, unumdorlik, sifat, atrof-muhit va xavfsizlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi

Muallifning fikricha, kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun avvalo zaif jihatlarni aniqlash va ularni takomillashtirish zarur. Koeffitsientlar asosida baholash tizimi orqali ustuvor yo‘nalishlar aniqlanadi, bu esa resurslarni samarali taqsimlash, xodimlar malakasini oshirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va barqaror ishlab chiqarish tizimini yaratishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning “O‘zbekiston kimyo sanoat korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini tadbiq etish holati tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatni tarkibidagi korxonalarda “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasidan foydalanish holati tahlili amalga oshirilgan. Kimyosanoat korxonalari ishlab chiqarish jarayonida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasini tadbiq etish samaradorligini baholangan. “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatni tizimida faoliyat yuritayotgan kimyo sanoati korxonalarida ishchi-xodimlarining tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini tadbiq etishiga ta’sir etuvchi omillarning ta’siri ekonometrik tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kimyo sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlar qatoriga kiradi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadallashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil etilgan. Hozirgi vaqtida “Maxam-Chirchiq”, “Navoiyazot” va “Farg‘onaazot” AJlari azotli o‘g‘itlar: ammiakli selitra, karbamid, ammoniy sulfati ishlab chiqaradi. “Ammofos-Maksam”, “Samarqandkimyo” va “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJlari fosforli o‘g‘itlar: ammofos, suprefos, oddiy ammoniyli superfosfat, ammoniysulfofosfat va nitrokalsiyfosfat ishlab chiqaradi. Ularni xomashyo bilan “Qizilqum fosforit” kombinati ta’minlaydi. “Elektroximzavod” QK AJ o‘simgiklarni muhofaza qilish kimyo vositalarini ishlab chiqaradi.

So‘nggi yillarda sohani modernizatsiya qilish, moliyaviy-iqtisodiy sog‘lomlashtirish va yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi

nomenklaturasini kengaytirish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Respublikada xomashyo resurslari (tabiiy gaz, fosforitlar, sulfat kislotasi va h.k.) cheklanganligi, shuningdek "O'zkimyosanoat" AJ korxonalarini asosiy fondlarining yuqori darajada eskirganligi sababli jami sof holda 1, 4 mln. tonna mineral o'g'itlar (o'sish sur'ati – 95 foiz), shundan, 1,1 mln. tonna azotli (o'sish sur'ati – 98,3 foiz), 108,8 ming tonna fosforli (o'sish sur'ati – 66,7 foiz) va 198,0 ming tonna kaliyli (o'sish sur'ati – 100,1 foiz) o'g'itlar ishlab chiqarildi<sup>9</sup>.

2021–2024-yillar davomida kimyo sanoati korxonalarining asosiy ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'sish ko'rsatdi. Ishlab chiqarish hajmi 2021-yilda 11,0 trln. so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 15,9 trln. so'mga yetib, jami +4,9 trln. so'mga o'sidi. Eksport ko'rsatkichlari ham o'sish dinamikasini saqlab, 2021-yilda 381,98 mln. AQSH dollari bo'lgan eksport 2024-yilga kelib 495,1 mln. dollarga yetdi, ya'ni +113,12 mln. dollarlik o'sish kuzatildi. (2-jadval).

## 2-jadval

### 2021-2024-yillarda kimyo sanoati asosiy ko'rsatkichlari<sup>10</sup>

Ko'rsatkichlar	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	Farqi (2021-2024)
Ishlab chiqarish (trln. so'm.)	11, 0	15, 2	15, 7	15,9	+4,9
Eksport (mln. AQSH doll.)	381,98	481,99	485,2	495,1	+113,12

Mamlakatimizda 2024-yil yakuni bo'yicha sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar respublika jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 2,4 foizini, jami kimyo sanoati korxonalarini ishlab chiqarish hajmining 45,5 foizini tashkil etadi. Hozirgi kunda "O'zkimyosanoat" AJ tarkibida 13 ta korxona bo'lib, shundan ayrimlari yirik ishlab chiqarish korxonalarini, transport-ekspeditsiya va eksport korxonalarini, ilmiy tadqiqot institut va sanoat korxonalarini qurilish direksiyasi hisoblanadi.

O'zbekistonda 2019-2023-yillarda kimyo sanoatida mahsulot ishlab chiqarish umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga nisbatan o'rtacha o'sish sur'ati past bo'lgan. Tahlil yillarida kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishning o'rtacha o'sishi 100,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sishi 105,9 foizni tashkil etgan. Natijada kimyo sanoatining jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2019-yildagi 7,4 foizdan 2022-yilda 7,2 foizga pasaygan.(3-jadval)

Biroq so'nggi yillarda sohani modernizatsiya qilish, moliyaviy-iqtisodiy sog'lomlashtirish va yuqori qo'shilgan qiymatlari kimyoviy mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Tarmoq korxonalarining rentabelligini ko'tarish maqsadida bozor mexanizmlari

<sup>9</sup> O'zkimyosanoat AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>10</sup> O'zkimyosanoat AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

joriy etilib, narxni shakllantirish tartibi butunlay qayta ko‘rib chiqildi. Natijada kimyo tarmog‘i 2024-yilni 2019-yilga nisbatan 2,4 barobar ko‘p foyda bilan yakunladi.

### 3-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish ko‘rsatkichlari<sup>11</sup>.

Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Sanoat mahsuloti hajmi, mldr. so‘m	322535,8	368740,2	451633,9	553265	655 821,9	789 721,8
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi oshishi, %	105,0	100,9	108,7	105,3	110,8	120,4
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, mldr. so‘m	18974,3	21213,5	28080,7	33639,5	34521,6	36039,9
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishi, %	102,3	107,6	105,7	98,1	102,7	101,4
Kimyo mahsulotlari sanoat mahsulotlaridagi ulushi, %	7,4	6,9	7,4	7,2	8,3	8,4

Tadqiqot obyekti sifatida olingan kimyo sanoati korxonalarida qayta sozlash vaqtini optimallashtirish: SMED usulini joriy etish polimer partiyalarini almashtirish uskunalarini qayta sozlash vaqtini 8 soatdan 2 soatgacha qisqartirish imkonini berdi. Bu yanada moslashuvchan partiyalarini ishlab chiqarish va bekor turish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu korxonada 5S usulini qo‘llash xomashyo yo‘qotishlarini 10% ga kamaytirishga, shuningdek, ish maydonini tashkil etishni yaxshilashga yordam berdi, bu esa ish xavfsizligi va samaradorligini oshirdi.

Just-in-time (zaxiralarini kamaytirish maqsadida) tizimini joriy etish ombordagi xomashyo zaxiralarini 15 foizga qisqartirish imkonini berdi, bu esa qo‘shimcha maydonlarni bo‘shatdi va saqlash xarajatlarini kamaytirdi. Sifatni statistik nazorat qilish tizimini (SPC) joriy etish nuqsonli mahsulotlar foizini 3 foizdan 1 foizga kamaytirish imkonini berdi, bu esa qaytarish va qayta ishslash xarajatlarini kamaytirdi.

“Ammofos-Maksam” AJ zavodida “Lean Production”ni joriy etish xarajatlarni 20 foizga kamaytirish, unumdonlikni 15 foizga oshirish, bekor turish vaqtini 25 foizga qisqartirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini berdi, bu esa pirovardida foydaning ko‘payishiga va bozorda raqobatbardoshlikning oshishiga olib keldi.

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Agar jarayonlarni bajarish vaqt qisqargan bo'lsa, vaqt koeffitsiyenti ham 1 dan katta bo'lishi kerak (masalan, agar vaqt 20% ga kamaygan bo'lsa, tegishli koeffitsiyent 0,8 ga teng bo'ladi) (4-jadval).

#### 4-jadval

#### **“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tizimida faoliyat yuritayotgan kimyo sanoati korxonalarida “Tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasidan foydalanishni boshqarish samaradorligini baholash natijalari<sup>12</sup>**


Korxona nomi	Berilgan baho	Berilgan bahoning mazmuni
“Navoiazot” AJ	1,44	O'rtachadan yuqori samaradorlik
“Farg'onaazot” AJ	1,76	O'rtachadan yuqori samaradorlik
“Maksam-Chirchiq” AJ	1,24	Past samaradorlik
“Ammofos-Maksam” AJ	1,81	Yuqori samaradorlik
“Jizzax plastmassa” AJ	1,12	Past samaradorlik
“Qo'ng'irod soda zavodi” MCHJ	0,45	Juda past samaradorlik
“Dehqonobod kaliyli zavodi” AJ	0,38	Juda past samaradorlik

Kimyo sanoati korxonalarida “Tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasining samaradorligi turlicha baholangan. Eng yuqori natija 1,81 ball bilan “Ammofos-Maksam” AJ ga tegishli bo'lib, u yuqori samaradorlikka ega deb baholangan. “Farg'onaazot” (1,76) va “Navoiyazot” (1,44) korxonalari ham o'rtachadan yuqori samaradorlik ko'rsatkichiga ega. “Maksam-Chirchiq” (1,24) va “Jizzax plastmassa” (1,12) korxonalari past samaradorlik bilan baholangan. Eng quyisi ko'rsatkichlar esa “Qo'ng'irod soda zavodi” (0,45) va “Dehqonobod kaliyli zavodi” (0,38) ga tegishli bo'lib, ularda juda past samaradorlik qayd etilgan. Bu natijalar korxonalarda tejamkor ishlab chiqarish mexanizmlarining turlicha darajada amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Kimyo sanoati korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini tadbiq etishni boshqarish amaliyotini takomillashtirish yo'llari”** deb nomlangan uchinchi bobida kimyo sanoati korxonalari boshqaruvida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasini tadbiq etish vositalari tadqiq etilgan. Kimyo sanoati korxonalarida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasidan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Kimyo sanoati korxonalarida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari bayon etilgan.

Tashkiliy-tuzilmaviy sxemaning birinchi bosqichi doirasida korxonada o'zgarishlarni amalga oshirish zarurligi, tashqi va ichki muhitning dolzarb xususiyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha rahbarlarning strategik vazifasi qo'yilgan. Agar shartlar Lean productionga murojaat qilish manfaatlariga mos kelsa, kompaniya rahbariyati tomonidan ichki jarayonlarning manfaatdor tomonlar uchun natijalarga muvofiqligini aniqlash jarayoni amalga oshiriladi.

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi.



**3-rasm. Lean productionni joriy etish va/yoki uzluksiz rivojlantirishning tashkiliy-tuzilmaviy sxemasi<sup>13</sup>.**

Nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, kompaniya rahbariyati ularni bartaraf etish uchun Lean productiondan foydalish imkoniyatini beradi.

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi.

Agar korxona Lean productionga birinchi marta murojaat qilayotgan bo‘lsa, unda tashkiliy-tuzilmaviy sxema mantig‘ida kompaniyaning topmenejmenti Lean production modelini joriy etishning ikkinchi bosqichiga o‘tadi, bu vazifalarni belgilash, loyiha guruhini shakllantirish, tuzilmani aniqlash va ish texnologiyasini tanlashni o‘z ichiga oladi.

## 5-jadval

### Kimyo sanoati korxonalaridagi Lean productionni tadbiq etish samaradorligining konseptual modeli<sup>14</sup>.

Mezonlar	Kimyo sanoati korxonalaridagi Lean production (ichki jarayonlar)natijalari	Kimyo sanoati korxonalaridagi Lean production (ichki jarayonlar)natijalarini baholash ko‘rsatkichlari
VAQT	Buyurtmani bajarish vaqtini qisqartirish	Ishlab chiqarish siklining davomiyligi
		Logistik sikli vaqtি
		Ishlab chiqarishga tayyorlashda hujjatlarni qayta ishlash vaqtি
	Mehnat unumdorligini oshirish	Mehnat unumdorligining o‘sish sur’ati
		Ishlarning sermehnatiligi
MABLAG‘	Mehnat unumdorligining pasayishi	Xodimlar soni
		Ishlab chiqarish hajmi
		OEE uskunasidan foydalanish samaradorligi
		Mehnat xarajatlari
